

FARHODOV Rustambek,
DXX "Temurbeklar maktabi"
harbiy-akademik litseyi o'quvchisi

Ilmiy rahbar: AKHMEDOV Yunusjon

ERON NEFTINI MILLIYLASHTIRISHDA MUHAMMAD MUSADDIQNING ROLI

РОЛЬ МОХАММАДА МОСАДДИКА В НАЦИОНАЛИЗАЦИИ ИРАНСКОЙ НЕФТИ

THE ROLE OF MOHAMMAD MOSADDIQ IN THE NATIONALIZATION OF IRANIAN OIL

Annotatsiya. Kolonial mafkura uzoq muddat davomida kuchli davlatlarni boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashuviga, ularning milliy boyliklaridan foydalanishga undagan. Eron ham o'z davrida qudratli davlatlarning bunday mafkurasidan jabr ko'rgan. Garchi Eron biror kuchli mamlakatning mustamlakasi bo'lmasa-da, Buyuk Britaniya, Rossiya imperiyasi (keyinchalik Sovet davlati), AQSH bu davlatning harbiy-iqtisodiy zaifligidan foydalanib, uning ichki ishlariga aralashgan, moddiy boyliklarini o'zlashtirishga harakat qilgan. Buyuk Britaniya va AQSHning Eron neft sanoatidagi hukmronligini milliy mustaqillikka xavf deb bilgan siyosiy yetakchilar mamlakatning iqtisodiy mustaqilligiga erishishning ahamiyatini anglab yetishgan. Muhammad Musaddiq o'z vaqtida Eron hukumatini boshqarib Buyuk Britaniya va AQSHning mamlakatdagi iqtisodiy mavqeini pasaytirishga qaratilgan siyosiy kursni tanladi. Milliy siyosiy yetakchining faoliyati, uning siyosiy qadamlariga bosim o'tkazish va oxir-oqibat g'ayriqonuniy usullar orqali hukumatdan olib tashlash xalqaro siyosat tarixida sinab ko'rilgan usullar ekanligi maqolada ko'rsatib berilgan. Maqolada aynan Eronda qonuniy hukumatni ag'darishda siyosiy texnologiyani chetdan turib amalga oshirgan kuchli davlatlarning harakati "rangli inqilob" xarakterida bo'lganligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliy lashtirish, iqtisodiy mustaqillik, siyosiy mustaqillik, ekspropriatsiya, iqtisodiy ekspluatatsiya, iqtisodiy qaramlik, "rangli inqilob", kolonial mafkura, neft sanoati, yurisdiksiya, Mi-6, Markaziy razvedka boshqarmasi.

Аннотация. Колониальная идеология долгое время поощряла могущественные страны вмешиваться во внутренние дела других стран и использовать их национальные ресурсы. Иран в свое время также пострадал от этой идеологии. Хотя Иран не был колонией какой-либо могущественной державы, Великобритания, Российская империя (позже Советский Союз) и США воспользовались военной и экономической слабостью страны для вмешательства в ее внутренние дела и попытались поглотить ее материальные богатства. Политические лидеры, рассматривавшие доминирование Великобритании и США в нефтяной промышленности Ирана как угрозу национальной независимости, осознавали важность достижения экономической независимости страны. Мохаммад Мосаддик возглавив правительство Ирана выбрал политический курс, направленный на снижение экономического господства Великобритании и США в стране. В статье показано, что деятельность национального политического лидера, оказание давления на его политические шаги и окончательное отстранение его от власти незаконным путем являются проверенными методами в истории международной политики. А также, показано, что действия могущественных стран, внедривших извне политическую технологию по свержению законной власти в Иране, носили характер «цветной революции».

Ключевые слова: национализация, экономическая независимость, политическая независимость, экспроприация, экономическая эксплуатация, экономическая зависимость, «цветная революция», колониальная идеология, нефтяная промышленность, юрисдикция, Ми-6, ЦРУ.

Annotation. Colonial ideology has long encouraged powerful countries to interfere in the internal affairs of other countries and use their national resources. Iran also suffered from this ideology in its time. Although Iran was not a colony of any powerful country, Great Britain, the Russian Empire (later the Soviet Union) and the United States took advantage of the country's military and economic weakness to interfere in its internal affairs and attempted to absorb its material wealth. Political leaders, who viewed the dominance of Great Britain and the United States in Iran's oil industry as a threat to national independence, realized the importance of achieving economic independence for the country. Mohammad Mosaddiq, heading the Iranian government, chose a political course aimed at reducing the economic dominance of Great Britain and the United States in the country. The article shows that the activities of a national

political leader, putting pressure on his political steps and ultimately removing him from power illegally are proven methods in the history of international politics. It is also shown that the actions of powerful countries that introduced political technology from outside to overthrow the legitimate government in Iran were in the nature of a “color revolution”.

Keywords: *nationalization, economic independence, political independence, expropriation, economic exploitation, economic dependence, «color revolution», colonial ideology, oil industry, jurisdiction, MI-6, CIA.*

KIRISH

Kishilik tarixiga e'tibor berilsa mustaqillik yo'liga qadam tashlagan har bir mamlakat muayyan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. Ana shunday qiyin yo'llar orqali tom ma'nodagi mustaqillik qo'lga kiritilgan joyda mustaqillikni mustahkamlashga, uni millatning bebaho qadriyatiga aylantirishga e'tibor kuchayadi. Ko'pincha mustaqillikning murakkab yo'llari tarix sahnasiga shunday shaxslarni chiqaradiki, ularning faoliyati keyinchalik butun avlodlar xotirasida abadiy qoladi. Zero, bunday shaxslar o'z xalqi uchun eng qiyin vaziyatda to'g'ri yo'l ko'rsata olgan, o'z hayoti mazmunini xalqiga, uning baxtli hayotiga safarbar qilishga qaror qilishgan. Bu yo'lda ular muayyan qiyinchiliklarga, mahrumiyatga ro'baro' bo'lishgan bo'lsa-da, lekin o'z aqidalaridan voz kechishmagan, oqibatda ularning nomi millat yodida abadiy saqlanadi.

Eron davlati ham o'zining iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritishda dunyoning eng kuchli davlatlari – Rossiya imperiyasi (keyinchalik SSSR), AQSH, Buyuk Britaniyaning kolonial mafkurasining ta'siridan ozod bo'lish uchun yillar davomida kurashishiga to'g'ri kelgan. To'g'ri, Eron biror kuchli mamlakatning mustamlakasi bo'lmagan, lekin kuchli mamlakatlar hamisha uning ichki siyosiy, iqtisodiy siyosatiga o'z ta'sirini o'tkazishgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu jarayon qandaydir ko'rinishda bugun ham Eron uchun davom etmoqda. Uning tabiiy boyliklari, qulay geo-siyosiy joylashuvi rivojlangan mamlakatlarni befarq qoldirmagan. Shu sabab mamlakat siyosiy hayotida faoliyat olib borgan qator siyosatchilar aynan kuchli mamlakatlarning geosiyosiy maqsadlariga qarshi kurashiga to'g'ri kelgan. Shunday shaxslardan biri 1951-1953

yillarda Eron bosh vaziri lavozimida ishlagan, o'zining qat'iy siyosiy pozitsiyalari uchun AQSH va Buyuk Britaniya maxsus xizmatlari tomonidan tayyorlangan “inqilobiy voqealar” natijasida hokimiyatdan chetlatilib, tutqunlikda saqlangan Muhammad Musaddiq sanaladi.

ASOSIY QISM

Muhammad Musaddiqsiyosiy faoliyatining eng aktiv fazasi 1951– yil 28-aprelda Milliy front partiyasining “Eron neftini milliyashtirish to'g'risida”gi Qonun loyihasi parlament deputatlari tomonidan bir ovozdan ma'qullangan davrga to'g'ri keladi. Mazkur voqea Eronni boshqa gegemon davlatlarga nisbatan ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy tomonlama qaramligini, mustamlakachi davlatlarning ushbu mamlakat ichki ishlariga aralashuvini to'xtatishga qaratilgan edi. Eron neft sanoatini milliyashtirish loyihasi Buyuk Britaniyaning Eron ichki ishlariga 150 yillik siyosiy aralashuvi hamda iqtisodiy ekspluatatsiyasi va Eronning yer osti resurslarini talon taroj qilishga qaratilgan tajovuziga chek qo'yar edi. Bu davrda Eronning siyosiy maqomi mustaqil davlat bo'lsa-da, u Qojarlar sulolasidan bo'lgan shoh xonadoni tomonidan chet davlatlarga berilgan imtiyozlar, shuningdek, 1933 – yilda Muhammad Rizoshoh Pahlaviy tomonidan imzolangan neft kelishuvlari asosida chet davlatlarga qaram edi [6:1]. Eron neftini milliyashtirish iqtisodiy mustaqillik bilan bir qatorda siyosiy ahamiyati ham nihoyatda katta bo'lishini anglagan Muhammad Musaddiq Milliy front partiyasi rahbari, keyinchalik Eron bosh vaziri (1951-1953) sifatida bu ishni amalga oshirishga qat'iy kirishadi.

Musaddiq siyosiy oqibatlarga ega bo'lgan neft sanoatini milliyashtirish loyihasiga osonlikcha erishib bo'lmashligini yaxshi tushungan. Eronning ichki resurslariga egalik qilish orqali uning siyosiy tizimiga ham ta'sir o'tkazishni maqsad qilgan davlatlar iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga erishish yo'lida hozirgi davrda ko'pchilikka tanish “rangli inqiloblar” orqali legitim hokimiyatni ag'darishga ham tayyor edilar [6:2]. Musaddiq 1951- yil 8-martda “Neft komissiyasi” majlisiga Eron neftini milliyashtirish g'oyasini taqdim etadi. Uning loyihasi va Milliy front partiyasining bu boradagi qat'iy harakati Bahoriston maydonida katta ommaviy mitingda qo'llab-quvvatlanganligi

keng jamoatchilik ham xorijiy mamlakatlarning Eron ichki ishlariga aralashuvidan keskin norozi ekanligidan darak berar edi. Eronning AQShdagi sobiq elchisi, neftni milliyalashtirish g'oyasiga ashaddiy qarshi bo'lgan Husayn A'lo bosh vazirlik lavozimiga 11-mart kuni tayinlangandan keyin Tehron va Xuzistonda xorijiy mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy ta'siriga barham berishga qaratilgan miting va namoyishlar o'tkazishni taqiqlash hamda harbiy holat joriy etish to'g'risida sirkulyar e'lon qilgan edi. Qiyin siyosiy vaziyatda 1951-yilning 16-mart kuni AIOC (Anglo-Iran Oil Company)ga qarshi kurash milliy jamiyati neftni natsionalizatsiya qilish talablarini ilgari surib chiqishdi [1:2].

Kompaniyaning javob reaksiyasi o'ziga tegishli bo'lgan bir nechta neft konlarida ishlovchilarga subsidiyalar to'lashni to'xtatish orqali namoyon bo'ladi. Natijada Bandar-Mashura koni neftchilari ish tashlash e'lon qilishdi. Hukumat esa AIOC konlari joylashgan hududlarda harbiy holat joriy etadi. Bahorda ham neftni natsionalizatsiya qilishni qo'llab-quvvatlovchi bir qancha norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi va unda hukumat qo'shinlarining tinch aholiga qarata o'q uzishi natijasida ko'plab ishchilarning halok bo'lishi mamlakat aholisining hukmron doiralarga bo'lgan ishonchini so'ndirib, norozilik kayfiyatini yanada avj oldiradi. Eron xalq partiyasi, Demokratik kasaba uyushmalari AIOCga qarshi mitinglar o'tkazardi [7:2].

Siyosiy vaziyatning murakkablashuvi siyosiy inqirozni keltirib chiqaradi va bu holat bosh vazir hamda uning kabinetini iste'foga chiqishga majbur etdi. 28-aprelda Eron parlamenti Milliy Majlis neft sanoatini milliyalashtirish g'oyasini amalga oshirishni bir ovozdan ma'qullashi, parlament deputatlarining ham o'z davlatlari siyosiy taqdiriga befarq emasliklarini namoyon etdi. Shu kuni Muhammad Musaddiq hukumat tepasiga keldi.

Bosh vazir mustaqil, erkin va faol demokratik Eronni siyosiy maydonda ko'rishni tasavvur qildi. Uning tasavvuridagi mustaqillik ham siyosat, ham iqtisodiyotda namoyon bo'lishi kerak edi. Musaddiq bosh vazir sifatida korrupsiyadan xoli, mustaqil sud tizimiga ega, diniy e'tiqod erkin, saylovlar demokratik bo'ladigan mamlakat barpo etish orzusida edi va bu yo'lda dastlabki qadamlar ham tashlangan edi. Musaddiq o'z lavozimida

bo'lgan davrda uning ichki siyosati mamlakat byudjetini muvozanatlash, neftdan tashqari ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning siyosatiga qarshi kuchlar mamlakat ichkarisida va tashqarisida ham mavjud edi. Shoh, armiya generallari, yetakchi din arboblari, yer egalari hamda Britaniya va AQSh hukumatlari Musaddiq hukumatining faoliyatidan keskin norozi edilar [5:1]. Eron siyosiy fazosidagi o'zgarishlarga ishongan Musaddiq o'z dasturlarini amalga oshirishni davom ettirdi.

Milliy Majlis neft sanoatini milliyalashtirish to'g'risida qonun loyihasini ishlab chiqdi, bu qonun AIOC mulkini Eronga musodara qilishni ham nazarda tutardi. Islohotni amalga oshirishda avvalo "Eron milliy neft kompaniyasi" (INOC) nizomi va eronlik neft mutaxassislarini tayyorlash dasturini ishlab chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi, ikkinchidan, Muhammad Musaddiq AIOC hujjatlarini tekshirishga, kompaniyaning Eron neft zaxiralari ustidan nazoratini cheklashga harakat qildi, uchinchidan AIOC esa Eron hukumati bilan hamkorlik qilishdan bosh tortgach, parlament Eron neft sanoatini milliy va xorijiy kooperativ vakillarini mamlakatdan chiqarib yubordi.

Keyingi qat'iy qadam 1951-yilning may oyida tashlandi va AIOC milliylashtirildi, 1993-yilda tugashi kerak bo'lgan neft konsessiyasi bekor qilindi va uning aktivlari ekspropriatsiya qilindi. Eronda neft sanoatini milliyalashtirish to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi Buyuk Britaniya hukmron doiralari tashvishga soldi va ular 1951-yil 26-mayda Gaagadagi Xalqaro sudga shikoyat xati bilan murojaat qildi. Sud da'vogarlarini qondiradigan javobni bermagach, Britaniya hukumati bu ishga bevosita aralasha boshladi. Musaddiq AIOCni Eron nefti ustidan nazoratni qo'ldan chiqarmaslik, mamlakat siyosiy elitasiga ta'sirini o'tkazish istagini milliy mustaqillikka tahdid degan xulosaga keldi hamda o'zining milliyalashtirish siyosatini Eronni mamlakatdagi barcha neftning "qonuniy egasi" deb ta'kidlab o'tadi [5:2]. Uning siyosiy kayfiyatini 1951-yil 21-iyunida so'zlagan nutqidan ham sezish mumkin. U, "*Xorijiy davlatlar bilan uzoq yillik muzokaralarimiz hozircha hech qanday natija bermadi. Neftdan tushgan daromadlar bilan biz butun byudjetimizni to'ldirishimiz va xalq orasida qashshoqlik, kasallik va qoloqlikka qarshi kurashishimiz mumkin edi. Yana bir muhim*

jihat shundaki, Britaniya kompaniyasining kuch-qudratini yo‘q qilish orqali mamlakatimizning ichki ishlariga ta‘sir o‘tkazayotgan korrupsiya va intrigalarni ham yo‘q qilgan bo‘lardik. Bu vasiylik tugatilgach, Eron o‘zining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligiga erishadi” [5:3], deb ta‘kidlagan edi.

Buyuk Britaniya hukumati o‘zining Eron neft sanoatidagi hukmronligini qo‘ldan chiqarmaslik uchun barcha vositalardan foydalanishga intilgan. Jumladan, 1951-yilning 17-oktabrida o‘tkazilgan BMT Xavfsizlik Kengashining 560-yig‘ilishida Eron hukumatining tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma shartlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotganligi, agar bu holat davom etsa va Eron hamda Buyuk Britaniya munosabatlari keskinlashsa xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid paydo bo‘lishi haqida xabardor qiladi. Aniqrog‘ qilib aytganda Buyuk Britaniya vakillari Xavfsizlik Kengashi a‘zolariga Eronni iqtisodiy mustaqillikka intilishi tomonlar o‘rtasida urush harakatlarini ham keltirib chiqarishi mumkinligidan ogoh etishgan edi [2:1].

Buyuk Britaniya hukmron doiralari kolonial mafkuradan hali to‘liq qutulmagan davlat sifatida Musaddiq hukumatiga qarshi Eronda ichki bo‘linishni vujudga keltirish, butun dunyo bo‘ylab Eron neftini sotib olishga embargoni kuchaytirish, Eron aktivlarini muzlatish orqali Musaddiqning obro‘sig‘a putur yetkazish kabi choralarni qo‘llashi mumkin edi.

Britaniya hukumatining yuqorida ko‘rsatilgan choralari kutilgan natijani bermadi, keyingi qadam endi Musaddiqni hokimiyatdan ag‘darish bo‘lib qoldi. Britaniya bosh vaziri Uinston Cherrill Britaniya maxfiy razvedka idorasi MI-6 ga Eronda zudlik bilan davlat to‘ntarishi rejasi tayyorlashni buyurdi. MI-6 maxfiy xizmati bu reja bilan AQSH Markaziy razvedka boshqarmasini ham tanishtirib, hamkorlikda ishlashni taklif qildi. Dastlabki davrda AQSH Markaziy Razvedka Boshqarmasi hamkorlikdan bosh tortgan edi. Bunga sabab o‘sha vaqtdagi AQSh prezidenti Trumen boshchiligidagi hukumat Eron bilan muzokaralar olib borib, kelishmovchiliklarni bartaraf etish umidida edi. Hatto 1951-yil iyul oyida AQSh prezidentining maxsus vakili Uilyam Garriman Eronga rasmiy tashrif bilan keladi va oktabr oyida Muhammad Musaddiqning o‘zi ham AQShga tashrif buyuradi hamda Trumen bilan uchrashadi [1:3]. Uchrashuvda Eron bosh vaziri Trumendan

Britaniya bilan kelishmovchilikda vositachilik qilishini, shuningdek, qarz shaklida moliyaviy yordam berishini so‘radi. Afsuski, Musaddiqning bu talabi AQSH hukumati tomonidan inobatga olinmaydi [3:2].

Aynan shu davrda Muhammad Musaddiq va Rizoshoh Pahlaviy o‘rtasida ham munosabatlar keskinlasha boshladi. Buning asosiy sababi sifatida 1952-yil 16-iyulda Eron o‘zining yangi Vazirlar Mahkamasini tasdiqlash paytida Musaddiqning harbiy vazir va Bosh shtab boshlig‘i lavozimini bosh vazirga berish haqidagi qoidani konstitutsiyaga kiritish haqidagi talabi bo‘lgan edi. Shoh Musaddiqning bu harakatini hukumatning ustidan hukmronlikni yanada mustahkamlashga intilishi sifatida qabul etib, keskin rad javobini beradi. Agarda Muhammad Musaddiq harbiy vazir lavozimiga tayinlansa, u Shohni hukumatga qarshi turishi uchun monarxiya tarafdori bo‘lgan zobitlardan foydalanish huquqidan ham mahrum qilinishini yaxshi tushungan edi.

Bunga javoban bosh vazir o‘zining iste‘fosini e‘lon qildi va xalqqa murojaat qilib, hozirgi vaziyatda boshlangan kurashni g‘alaba bilan yakunlab bo‘lmasligini ta‘kidlaydi. Bu yerda Muhammad Musaddiqni siyosiy vaziyatni yaxshi tushunadigan yetakchilik qobiliyati namoyon bo‘lgan edi. Ertasi kuni shoh Britaniya va AQSh hukumati talabiga binoan **faxriy** siyosatchi Ahmad Qavomni hukumat boshlig‘i etib tayinladi. Yangi bosh vazir inglizlar bilan neft mojarosiga barham berishini e‘lon qiladi. Milliy front partiyasi, islomiy va sotsialistik partiyalar, jumladan, Tudeh partiyasi ham Musaddiq foydasiga namoyishlar, ommaviy miting va ish tashlashlar o‘tkazdi. Tehron, Hamadon, Isfahon kabi shaharlarda 200dan ortiq namoyishchilar halok bo‘ldi. Oyatilloh Koshoniy xalqni bosh vazir Qavomga qarshi “muqaddas urush”ga chaqirdi [7:3]. G‘alayonlardan qo‘rqqan shoh Muhammad Musaddiqni avvalgi lavozimiga tayinlab, so‘ragan vakolatlarini ham topshirishga majbur bo‘ldi.

Mazkur voqealardan bir necha kun o‘tib, Gaagadagi xalqaro sud Eronni neft bo‘yicha Britaniya bilan nizoda Britaniyani hech qanday yurisdiksiyaga ega emas deb topdi va tez orada BMT Xavfsizlik kengashi Buyuk Britaniyaning Eronga qarshi shikoyatini “o‘rinsiz” deb baholadi. O‘zining g‘alabalaridan ruhlangan Musaddiq

Buyuk Britaniya bilan diplomatik aloqlarini uzdi va bu vaziyatni yanada keskinlashuviga olib keldi. Shuningdek, 1952-yil 22-oktabrda Buyuk Britaniya ham Eron bilan diplomatik aloqlarini uzdi.

Bunday siyosiy mojaroga 1952-yil oxirlarida Duayt Eyzenxauer AQSH prezidenti etib saylanganidan keyin AQSHning aralashuvi Erondagi siyosiy muhitni ham keskin boshqa tomonga o'zgarishiga olib keldi. O'sha davr xalqaro siyosiy muhitiga xos ayblovlar – sovetlar bilan hamkorlik qilishga intilish “yorlig'i”ni Musaddiq hukumatiga yopishtirishga erishgan Cherrill hukumati bu borada Eyzenxauer hukumatini o'ziga nisbatan simpatiyasini ijobiy tomonga o'zgartirishga muvaffaq bo'lgan edi. Vaholanki, Musaddiqning kommunizmni yoqtirmasligi, uning hukumati sovetlarga moyil emasligini qator faktlar tasdiqlab ham turar edi. Bunday keskin vaziyatda Buyuk Britaniya o'zining moliyaviy manfaatlarini haqida qayg'ursa, AQSh hukumati Eron sovet blokiga o'tib ketishidan qo'rqqan edi [8:3]. Ikki gegemon davlatning o'z manfaatlarini uchun bu mojaroni hal etish yo'lida birlashuvi 1953-yil mart oyida Allen Dalles boshchiligidagi MRBning Musaddiqni hokimiyatdan chetlatishni maqsad qilgan “AYAKS” operatsiyasini ishlab chiqilishiga olib keldi. MI-6 esa “The Boot” nomini o'ylab topdi (bu ibora ingliz tilida “ketga tepish” ma'nosini ham anglatgan). 1953 - yil 4-aprelda Allen Dalles maxsus operatsiya uchun 1 mln dollar mablag' ajratdi [7:1]. Bu operatsiyani boshqarish maqsadida AQSHning sobiq prezidenti Ruzveltning nabirasi Kermit Ruzvelt Tehronga keldi. MRB o'zining rejasini amalga oshirishda Eron matbuoti, MI-6 ko'plab yillar davomida o'ziga og'dirgan xoinlar va josuslarning keng infratuzilmasi va tarmog'iga tayangan edi.

1953-yil 1-avgustda Kermit shoh bilan uchrashib, uni hukumatni ag'darish rejalari bilan tanishtiradi. Rejaga muvofiq shoh 10 kundan so'ng Tehronni tark etib, mamlakat shimolidagi Mozandaron shahriga borishi hamda bosh vazirning iste'fosini e'lon qilishi kerak edi. Ammo fitnadan xabar topgan bosh vazir zudlik bilan bunga qarshi kurashish choralarni ko'radi. Bosh vazirni qo'lga olish shoh gvardiyasiga yuklanganini bilgan Musaddiq gvardiya boshlig'ini hibsga oladi. Bundan cho'chigan shoh o'z xavfsizligini o'ylab, mamlakatdan qochib ketadi. Eron Tashqi ishlar

vaziri Husayn Fotemiy esa shoh Muhammadrizo Pahlaviy bundan buyon mamlakatda hokimiyatga ega emasligi haqida xabarni tarqatadi [4:1]. Shunday qilib, 15-avgustda boshlanishi kerak bo'lgan davlat to'ntarishiga urinish rejasini barbod bo'ldi.

2017-yil MRB tomonidan e'lon qilingan maxfiy hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, shoh Italiyaga qochganidan so'ng MRB shtab-kvartirasi davlat to'ntarishini barbod bo'ldi deb hisoblagan. MRB 18-avgustda Kermit Ruzveltga zudlik bilan orqaga qaytishini buyuradi, ammo Ruzvelt bunga e'tibor qilmay, ikkinchi davlat to'ntarishi ustida ish boshladi. U bu yo'lida mahalliy xalq, imomlar, qabila a'zolaridan foydalandi. Kermit Ruzvelt Shoh tarafdori bo'lgan ofitserlarni Musaddiqqa qarshi safarbar qilish orqali bosh vazir qarorgohi oldida namoyish o'tkazishga erishdi. 19-avgust kuni MRB va MI-6 maxsus kuchlari tomonidan tashkil qilingan namoyishlar bo'lib o'tdi. Bu orada Muhammad Musaddiq hibsga olindi, shoh mamlakatga qaytgach 2 ta farmonni e'lon qildi. Biri Musaddiqni ishdan bo'shatish hamda ikkinchisi, to'ntarish paytida armiyaga boshchilik qilgan Fayzulloh Zohidiyni bosh vazir etib tayinlash edi. Zohidiyning yangi hukumati tez orada AIOC va turli chet davlatlar kompaniyalari bilan konsorsium tuzish va Eron neftining jahon bozorida katta oqimini tiklash bo'yicha kelishuvlarga erishdi. Eronda neft qazib olishni, asosan, Britaniya va AQSh kompaniyalaridan iborat konsorsium o'z qo'lga oldi. Bu esa ikki gegemon davlatlarning urinishlari g'alaba bilan yakunlanganini anglatar edi. Umumiy hisobda davlat to'ntarishini amalga oshirishda ikki mamlakat tomonidan 20 mln dollar sarf qilingan edi [6:2].

Muhammad Musaddiq hibsga olingach, u xoin sifatida sudlandi. Dastlab berilgan o'lim jazosi 3 yillik yakka tartibdagi qamoq jazosi bilan almashtirildi. 1953-yil 19-dekabr kuni Musaddiqning sud jarayonida so'zlagan nutqi ham uning hokimiyatdan, ketishi xorijiy mamlakatlarning suniy uyushtirilgan siyosiy texnologiyasi ekanligidan darak beradi. *“Ha, mening eng katta gunohim men Eronning neft sanoatini milliyalashtirdim va dunyodagi eng buyuk imperiya tomonidan siyosiy va iqtisodiy ekspluatatsiya qilish tizimidan voz kechdim. Xalq irodasi bilan bu vahshiy va daxshatli xalqaro*

josuslik va mustamlakachilik tizimiga qarshi kurashdim” [9:3]. Demak, Musaddiq fikricha, iqtisodiy hukmronlikni qo‘ldan boy berishni xohalamagan kuchli mamlakatlar, har qanday qonuniy hukumatni yashirin, josuslik yo‘li bilan o‘z yo‘llaridan olib tashlash qudratiga ega.

Muhammad Musaddiq uch yil davomida bir kishilik kamerada saqlanganidan so‘ng umrining oxirigacha Ahmadobodagi qarorgohida uy qamog‘ida tutib turildi. Musaddiq 1967-yilning 5-martida 84 yoshida vafot etdi.

“AYAKS” operatsiyasining muvaffaqiyati, MRB ning milliy davlat rahbariga qarshi birinchi muvaffaqiyatli “rangli inqilobi” butun dunyoda AQSh manfaatlariga zid bo‘lgan davlatlarda bunday taktikani qo‘llash uchun katta tajriba bo‘ldi. 2013-yilning avgustida oradan 60 yil o‘tib, AQSh hukumati davlat to‘ntarishini rejalashtirish, uni amalga oshirish haqidagi maxfiy hujjatlarni ochiqdadi va AQShning davlat to‘ntarishidagi rolini rasman tan oldi.

XULOSA

Muhammad Musaddiq Eron tarixida milliy mustaqillikning iqtisodiy va siyosiy jihatlarini yaxlit qo‘lga kiritish lozimligi haqidagi g‘oyani ilk bor ilgari surgan siyosiy yetakchi sanaladi. Uning siyosiy sa‘y-harakati ommani siyosiy birlashuviga olib keldi, ommaga konservativ hukmron doiralarni hammasi ham milliy manfaatlarini himoyachisi emasligini yaqqol namoyon etdi. Aksincha, mamlakatni o‘zida ham xorijiy kuchlar bilan hamkorlik qilish istagi ustuvor bo‘lgan guruhlar davlat iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga zid harakat qilishini ko‘rsatib berdi. Shu bilan bir qatorda abarqudrat mamlakatlar ham tashqi siyosatda milliy manfaatlarini ustuvor qo‘yib, o‘zga davlatlarning mustaqillikka intilish siyosatini sindirishga intilishi ham kolonial mafkuralarning xavfli ekanligini namoyon etadi. Mustaqillik yo‘liga kirgan har qanday davlat uchun siyosiy yo‘ldagi erkinlikdan tashqari iqtisodiy hayotdagi mustaqillik ham nihoyatda katta ahamiyatga egaligini, kolonial mafkura hozirgi kunda ham turli yo‘llar orqali mustaqillikka yangi qadam qo‘ygan mamlakatlarning iqtisodiyotida o‘z mavqeini saqlab qolishga intilishi, bu maqsadni amalga oshirishda turli siyosiy texnologiyalardan samarali foydalanishga tayyor ekanligini unutmaslik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musaddiq’s memories. London: JEBHE, National Movement of Iran, c1988
2. Совет Безопасности: Официальные отчеты. 563-заседание. 17-октября, 1951 г.
3. Тарасов С. Тень Мосаддыка над Рухани. <https://regnum.ru/>
4. <https://en.wikipedia.org>
5. <https://iran1979.ru/>
6. <https://www.dipropaganda.com>
7. <https://www.britannica.com>
8. <https://kun.uz/news/2023/>
9. <https://mohammadmosaddegh.com>